# Onlayn-NKM yoki virtual kassa chek ma’lumotlarini tahrirlash

Soliq to‘lovchining (my.soliq.uz) shaxsiy kabinetida onlayn-NKM va (yoki) virtual kassa orqali chop qilingan chek summalarini tahrirlash imkoniyati yaratilgan.

**Onlayn-NKM yoki virtual kassa chekini tahrirlash uchun:**

1. **my.soliq.uz** portalida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti “**YuSh onlayn-NKM va virtual kassa ma’lumotlari**” bo‘limi




2. “**Tahrirlash**” menyusida, chek chop qilingan **savdo shoxobchasi** va chekning **fiskal modul raqami** tanlanadi va **chek raqami** kiritilib “**Qidirish**” tugmasi bosiladi.




3. Keyingi bosqichda tahrirlash uchun chek shakllanadi. Chek ma’lumotlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi va “**Hisoblash**” tugmasi bosiladi.

*(**Eslatma**: summada tiyin qismi uchun **NUQTA “.”** qo‘yiladi).*




4. So‘ng “**zip**” yoki “**rar**” formatda:

- davlat soliq xizmati organiga holat yuzasidan qilingan murojaat (ariza);
- murojaat (ariza) yuzasidan hududiy davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan asoslantirilgan o‘rganish ma’lumotnomasi;
- shoxobchaning tashqi va ichki foto surati;
- sotilgan mahsulotlarni asoslovchi hujjat nusxalari ilova qilinadi;

**5.** Davlat soliq hizmati organlari tomonidan, yuborilgan ma’lumotlar o‘rganib chiqilib, tasdiqlangandan so‘ng, chek ma’lumotlari **o‘zgaradi**.

**6.** Chek ma’lumotlari o‘zgartirilgandan so‘ng **“Cheklar bo‘yicha hisobot”** menyusida **“Yangilash”** tugmasi orqali, cheklar bo‘yicha hisobot ma’lumotlari o‘sha davr uchun yangilanishi lozim.




